



"Navoiyshunoslikning global yo'nalishlari:
yangi izlanishlar va tarjima muammolari"
mavzusida

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

II JILD

TILSHUNOSLIKDA LISONIY ONG TALQINI VA UNING TILDA AKS ETISHI

Ahmedova Nargiza Shixnazarovna,
Oriental universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
ashnargiza@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda lisoniy ong talqini, uning tilda aks etishi haqida ma'lumot beriladi. Lisoniy ongning verballashuvidan hosil bo'lgan assotsiativ maydon birliklari, assotsiativ ma'no va bunday birliklarning matn hosil qilish imkoniyati tahlil qilinadi. Assotsiativ tajriba va uning imkoniyatlari orqali til egasining lisoniy ongi, unda olamning lisoniy manzarasi aksi kabilarga e'tibor qaratiladi. Assotsiativ maydon birliklarining shakllanishi turli omillarga bog'liq ekanligi, bunday maydon madaniyatlararo muloqotda farqlanishi, u til egasining tafakkur darajasi, tasavvuri, ruhiyati va qadriyatlarini haqidagi ma'lumotlarni ham ifodalashi aytib o'tiladi.

Kalit so'zlar: lisoniy ong, psixolingvistika, assotsiativ tilshunoslik, assotsiativ maydon, assotsiativ ma'no, assotsiativ tajriba.

Аннотация. В данной статье рассматривается интерпретация языкового сознания в лингвистике и его отражение в языке. Анализируются единицы ассоциативного поля, сформированные в процессе вербализации языкового сознания, ассоциативное значение и потенциал таких единиц в текстообразовании. Через призму ассоциативного эксперимента и его возможностей уделяется внимание языковому сознанию носителя языка и отражению в нем языковой картины мира. Отмечается, что формирование единиц ассоциативного поля зависит от различных факторов, выявляются их различия в межкультурной коммуникации, а также способность таких полей отражать уровень мышления, воображение, психологию и систему ценностей носителя языка.

Ключевые слова: языковое сознание, психолингвистика, ассоциативная лингвистика, ассоциативное поле, ассоциативное значение, ассоциативный эксперимент.

Abstract. This article discusses the interpretation of linguistic consciousness in linguistics and its manifestation in language. It analyzes the units of the associative field formed through the verbalization of linguistic consciousness, associative meaning, and the text-forming potential of such units. Through the associative experiment and its capacities, attention is focused on the linguistic consciousness of the language speaker and the reflection of the linguistic picture of the world within it. It is noted that the formation of associative field units depends on various factors; furthermore, the article highlights the differences of these fields in intercultural communication and their ability to represent the speaker's level of thinking, imagination, psyche, and cultural values.

Keywords: linguistic consciousness, psycholinguistics, associative linguistics, associative field, associative meaning, associative experiment.

Zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik paradigmasida lisoniy ongni o'rganish markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Til sohibi lisoniy birliklarni nafaqat denotativ ma'nosi, balki konnotativ, ya'ni shaxsiy tajriba va madaniy muhit bilan bog'liq bo'lgan assotsiativ ma'nolari asosida idrok etadi. Ongning tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi faqat lisoniy muhitda, inson faoliyati va madaniyatning muayyan darajasi mahsuli bo'lgan verbal muloqot jarayonida yuz beradi.

Rus olimi L.S.Vigotskiy ongni inson xulq-atvori hamda nutqiy faoliyati orqali ko'rib chiqish lozimligini ta'kidlagan. Inson ongini tildan ayri holda tadqiq qilish unga imkonsiz bo'lib tuyulgan: "...ong — bu turli reflekslar tizimlarining o'zaro ta'siri, in'ikosi va o'zaro qo'zg'alishidir", bu verbalizatsiyalashgan — so'zga aylangan xulq-atvordir». [Vigotskiy, 1982:89, 95].

O'z tadqiqotlarida Z.D.Popova va I.A.Sternin ham ong va lisoniy ongni o'zaro farqlaydilar. Olimlar aynan nutq mexanizmlari hamda insonning o'z tili haqidagi bilimlari majmuasini lisoniy ong deb hisoblaydilar. Ular lisoniy ong deganda «nutqni yaratish, tushunish va tilni ongda saqlashning mental mexanizmlari majmuasini, ya'ni insonning nutqiy faoliyatini ta'minlovchi mental mexanizmlarni» tushunishni taklif etadilar [Popova, Sternin, 2007:32].

Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy ongni batafsil va tizimli o'rganish ham psixolingvistik, ham lingvokognitiv yondashuvlar doirasida amalga oshirilmoqda. Zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlarning asosini u yoki bu etnik hamjamiyat vakillarining lisoniy ongini o'rganish tashkil etadi. O'z navbatida, lisoniy ongni o'rganish orqali milliy dunyo manzaralaridagi universal va etnoxususiy jihatlarni tushunishga erishiladi. Shunday qilib, lisoniy ong lingvomadaniy hamjamiyatning fikrlash tarzini belgilaydi, uning kognitiv faoliyati xususiyatlarini, dunyoni idrok etish va tushunish o'ziga xosligini, shuningdek, madaniy qadriyatlar va tushunchalarni ifodalaydi.

Demak, lisoniy ong xalq mentalitetini aks ettiradi, chunki u insonning ruhiy faoliyati, uning tili va madaniyati bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, lisoniy ong nafaqat mentalitetning in'ikosi, balki uning tarkibiy qismi hamdir, chunki u mentalitetni belgilaydi va shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Tilshunos N.V. Ufimsevaning fikricha, lisoniy ong "u yoki bu madaniyatning til vositasida ifodalangan dunyo manzarasi, madaniyat sohibining real dunyo obyektlari haqidagi konseptual bilimlari majmuasidir" [Ufimseva, 2000:208].

A.A.Shayaxmetova ta'rifi ko'ra, lisoniy ong inson hayotiy faoliyatining o'zgargan shakli bo'lib, u insonning ijtimoiy-madaniy tajribasini va uning milliy-madaniy anglanishini verbalizatsiya qilish usulidir.

Lisoniy ong — bu inson ongining til bilan uzviy bog'liq bo'lgan qismi bo'lib, u orqali shaxs borliqni idrok etadi, tushunadi, kategoriyalarga ajratadi va ifodalaydi. Ilmiy jihatdan aytganda, lisoniy ong til birliklari (so'z, grammatik shakl, ibora, matn) orqali shakllanadigan va faoliyat ko'rsatadigan kognitiv tizimdir. Boshqacha aytadigan bo'lsak, lisoniy ong — bu individ yoki jamiyat ongida til vositasida shakllangan bilimlar, tushunchalar, tasavvurlar, baholar va madaniy qadriyatlar

majmui bo‘lib, u nutqni tushunish, ishlab chiqish va talqin qilish jarayonlarini boshqaradi.

Lisoniy ong kognitiv tabiatga ega bo‘lib, u tafakkur, xotira, idrok va tasavvur bilan chambarchas bog‘liq, u milliy madaniyat, tarix va an‘analar ta‘sirida shakllanadi hamda til orqali fikrlash va dunyoni anglash mexanizmi sanaladi. Insonda til tajribasi kengaygani sayin lisoniy ong ham rivojlanib boradi.

Psixolingvistikada lisoniy ong — bu inson miyasida tilni qabul qilish, qayta ishlash va hosil qilish jarayonlarini boshqaruvchi ruhiy mexanizmlar tizimi sifatida nutqni yaratish, tushunish, so‘z ma‘nosini boshqa so‘zlar bilan bog‘liqlikda xotirada saqlash vazifasini bajaradi. Kognitiv yondashuvda lisoniy ong tilni shunchaki aloqa vositasi emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘radi. Inson dunyoni qanday tushunsa, u tilida shunday aks etadi. Bunda lisoniy ong, konseptlar, kategoriyalar, metaforalar orqali shakllanadi.

Lingvomadaniy yondashuvda esa lisoniy ong — bu muayyan xalq vakillariga xos bo‘lgan, til orqali ifodalanadigan milliy tafakkur va dunyoqarash shaklidir. U milliy qadriyatlar, urf-odat va an‘analar, mentalitet, tarixiy tajriba asosida shakllanadi.

Lisoniy ong — bu inson yoki jamiyat ongida til vositasida shakllangan, borliqni idrok etish, tushunish va baholashni ta‘minlovchi kognitiv, ruhiy va madaniy tizim bo‘lib, u nutq faoliyatining asosini tashkil etadi. Lisoniy ong inson xotirasida til birliklarining o‘zaro semantik bog‘lanishlar asosida ierarxik tizimlashgan mental ko‘rinishi bo‘lsa, ushbu ichki tizimning tashqi lisoniy voqelanishi assotsiativ maydon hisoblanadi. Psixolingvistik jihatdan assotsiativ maydon til sohibi ongida muhurlangan madaniy-ijtimoiy tajribalarni va tushunchalar o‘rtasidagi yashirin kognitiv aloqalarni obyektivlashtiruvchi asosiy vositadir.

Shu bois muayyan turtki so‘z atrofida shakllangan reaksiyalar majmui lisoniy ongning yadro va periferiya qismlarini aniqlash orqali muayyan millat vakillarining dunyoqarashi va konseptual olam manzarasini modellashtirish imkonini beradi. Zero, assotsiativ maydon tarkibidagi yuqori chastotali birliklar lisoniy ongning barqaror qadriyatlar tizimini, individual reaksiyalar esa uning dinamik va subyektiv qatlamlarini aks ettiradi.

Iymon: e‘tiqod 28; Alloh 26; musulmon 26; musulmonlik 25; islom 24; ishonch 24; din 22; vijdon 20; halollik 18; taqvo 17; poklik 16; ibodat 15; namoz 14; sabr 13; shukr 12; duo 12; Qur‘on 11; ixlos 11; or-nomus 10; adolat 10; tavba 9; savob 9; qalb 9; nur 8; rostlik 8; to‘g‘rilik 8; mehr 7; rahm-shafqat 7; kamtarlik 7; sadoqat 6; umid 6; pok niyat 6; mas‘uliyat 6; iroda 5; bardosh 5; xotirjamlik 5; axloq 5; odob 5; tarbiya 5; nafs 4; gunoh 4; kufr 4; shubha 4; vasvasa 3; hirs 3; yolg‘on 3; sinov 3; yo‘l 3; tayanch 3; haqiqat 3; najot 3; baraka 2; hikmat 2; tinchlik 2; jamiyat 2; insoniylik 2; vatanparvarlik 1; Vatanni sevmoq iymondandir 1; hidoyat 1; hidoyat topish 1; oxirat 1; jannat 1; do‘zax 1; iymonli inson 1; pok qalb 1; halol mehnat 1; halol rizq 1; masjid 1; imom 1; sharaf 1; qanoat 1; hayot ma‘nosi 1.

Ushbu assotsiativ maydon birliklarini mazmuniy jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Diniy–e’tiqodiy assotsiatsiyalar: Alloh, e’tiqod, aqida, din, ibodat, namoz, ro‘za, duo, Qur’on, hadis, taqvo, oxirat, jannat, savob.
 2. Axloqiy–ruhiy assotsiatsiyalar: halollik, poklik, vijdon, sabr, shukr, tavba, or-nomus, adolat, rostlik, to‘g‘rilik, kechirim, rahm-shafqat.
 3. Shaxsiy sifat va ichki holatlar: ixlos, sadoqat, kamtarlik, iroda, bardosh, mustahkamlik, xotirjamlik, umid, pok niyat, mas’uliyat.
 4. Qarama-qarshi va sinov bilan bog‘liq assotsiatsiyalar: nafs, gunoh, kufr, shubha, vasvasa, hirs, yolg‘on.
 5. Ijtimoiy madaniy assotsiatsiyalar: odob, tarbiya, mehr, yaxshilik, tinchlik, baraka, hikmat.
 6. Metaforik va obrazli assotsiatsiyalar: qalb, nur, yo‘l, tayanch, najot, haqiqat.
- Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “iymon” konseptining assotsiativ yadrosini diniy-teologik birliklar tashkil etadi. “Iymon” o‘zbek lisoniy ongi tizimida “e’tiqod + axloq + ijtimoiy mas’uliyat” qolipini tashkil etadi. Lug‘atlarda berilgan ta’rifdan farqli o‘laroq tilda u insonning butun borlig‘ini, uning jamiyatdagi halolligi va ruhiy pokligini qamrab oluvchi keng qamrovli superkonsept darajasiga ko‘tarilgan. Demak, ushbu so‘zning ongdagi ma’no ko‘lami lug‘atdagi ta’rifidan ancha keng bo‘lib, u diniy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarining sintezidan iborat.

Adabiyotlar:

1. Болотнова Н.С. Коммуникативная стилистика текста: ассоциативные нормы как фактор текстообразования // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2014. Вып. 9. С. 32-39.
2. Бурнаева, К.А. Ассоциативное поле как способ моделирования фрагмента языкового сознания / <https://cyberleninka.ru/article/n/assotsiativnoe-pole-kak-sposob-modelirovaniya-fragmenta-yazykovogo-soznaniya>
3. Очинникова, И.Г. Ассоциативный механизм в речемыслительной деятельности <https://www.dissercat.com/content/assotsiativnyi-mekhanizm-v-rechemyslitelnoi-deyatelnosti>
4. Залевская А.А. Проблемы описания значения. — М., 1998.
5. Овчинникова И.Г. Ассоциация и высказывание: Структура и семантика. — Пермь, 1994.

TOHIR MALIKNING “CHARXPALAK” QISSASIDAGI AYRIM O‘XSHATISHLARNING SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLILI

Turakulova Umidaxon Anvarovna

University of Business and Science

til va adabiyot ta’limi kafedrası

o‘qituvchisi, PhD.

Email: umidaxon8589@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tohir Malikning “Charxpalak” qissasidagi “do‘ppidek osh”, “bo‘ridek g‘ajimoq”, “pilla qurtidek o‘ralib olmoq” kabi bir qator lingvomadaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘xshatishlarning tahlili xususida so‘z

J.K.Matnazarov	O‘ZBEK SHE’RIYATIDA NAVOIY ANTROPONIMNING POETIK VAZIFALARI	45
Ahmedova Nargiza Shixnazarovna	TILSHUNOSLIKDA LISONIY ONG TALQINI VA UNING TILDA AKS ETISHI	48
Turakulova Umidaxon Anvarovna	TOHIR MALIKNING “CHARXPALAK” QISSASIDAGI AYRIM O‘XSHATISHLARNING SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLILI	51
B.Q.Sapayeva, Hojiyeva Ziyoda Davlatnazar qizi	ALISHER NAVOIY ASARLARINI O‘RGANISH DARSLARINI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TASHKIL QILISH	56
Abduvalitov Nurjan Buranovich	ҰЛЫ АҚЫНДАР ҮНДЕСТІГІ: НАУАИ ЖӘНЕ АБАЙ	60
Azizova Nasiba Baxritdinovna	ALISHER NAVOIY IJODIDA LISONIY SHAXSNING LINGVOMADANIY MODELI	63
Muminova Umida Qarshiyevna	ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL- QULUB” ASARI LEKSIKASI VA UNING O‘ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI	67
Алламуратова Гулсанем Жалгасбаевна	ЦИФРОВЫЕ И КОРПУСНЫЕ МЕТОДЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ОСМЫСЛЕНИИ КЛАССИЧЕСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ	72
Begimov O‘ktam Haytbayevich	ADABIY ASARDA KONFLIKT MASALASI MATYOQUB QO‘SHJONOV QARASHLARI ASOSIDA	76
Худайбергганов Шухрат Эркинович, Хакимов Фаррух Бахрамович	ЛЕКСИЧЕСКАЯ ВАРИАТИВНОСТЬ И ЕЁ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЯЗЫКА	81
Худайбергганов Шухрат Эркинович, Хакимов Фаррух Бахрамович	ЛЕКСИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ДИНАМИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА	85
Maqsudbek Kadirov Uktamovich	PROBLEMS OF CULTURAL ADAPTATION IN TRANSLATING PROVERBS AND IDIOMS	91
Tilavova Minavar Durddiyevna	NUTQ KOMPOZITSIYASINING QISMLARI VA KOMPOZITSION-MANTIQIY NUTQ TUZISH METODIKASI	97
Aliyeva Sarvinoz Abbosjon qizi	LEXICO-SEMANTIC AND STRUCTURAL FEATURES OF ANTRONYMS	99